

## NON DASTURXONIMIZGA QANDAY QILIB KELADI?



Men nonushtada tandirdan endigina uzilgan issiq non yeyishni yaxshi ko'raman. Hammasidan ham menga sariyog' va murabbo surtilgan shirin kulcha yoqadi. Siz nonning dasturxonimizga qanday qilib kelishini bilasizmi?

Don omborlarga yig'iladi.

Don tegirmonda yanchilib, un qilinadi.

Novvoylar biz uchun non pishiradilar.

Yangi pishirilgan nonlar do'konlarga yetkazib beriladi.



### Stoldagi un mahsulotlari qanday nomlanadi?

Foydalanish uchun soʻzlar: buxanka, somsa, yupqa quymoq, obi non, baton, pirog, pechenye, teshikkulcha, shirin kulcha, tort.

### Non qaysi dondan tayyorlanadi?



Joʻxori  
Zogʻora non





Marjumak  
Qora non



Javdar  
Javdar non



Bugʻdoy  
Bugʻdoy non



## UYDA NIMALAR BOR?



Bizning uydagi yordamchilarimiz bular – dazmol, muzlatkich va changyutkich. Sizga uy ishlarida nimalar yordam beradi?



Rasmdagi juft buyumlarni solishtiring. Ulardan qaysi biri zamonaviy, qaysi biri qadimiy?

### Kir yuvish vositalari



### Tozalash vositalari



### Dazmollash vositalari



### Ko'ngilochar vositalar



*Maishiy jihozlar – inson uyida, kundalik hayotida ishlatadigan asbob-uskunalar.*

**Bolalar xonasi**

**Yotoqxonona**

**Mehmonxonona**



Rasmlarga qarab, uyda qanday xonalar borligini aytib bering.  
Har bir xonada qanday mebellar bor?  
U yerga qaysi maishiy jihozlar o'rnatilgan?



Xonalarda qanday uy jihozlari bor?  
Ular nimadan yasalgan? Uydagi elektr jihozlarining nomini ayting.



Yuvinish xonasi



Oshxona

## QANDAY TRANSPORT TURLARI BOR?



Ilgari odamlar qaysi transport vositalaridan foydalanishgan? Hozir-chi?



**Ushbu transport vositalari nima yordamida harakatlanadi?**



**Transport vositalari quyidagi turlarga bo'linadi:**

- yerusti
- suv
- havo

Har bir transport vositasi qaysi guruhga tegishli?

## YERUSTI TRANSPORTI



Poyezd



Avtomobil

## HAVO TRANSPORTI



Samolyot



Vertolyot

## SUV TRANSPORTI



Qayiq



Kema



Ushbu transport turlari haqida nimalarni bilasiz? Ularning nomini eslab qoling. Ulardan qaysi biri eng tez yuradi?

